

O`TMISHI BUYUK, KELAJAGI PORLOQ MINGTEPA

Rahmonova Parizod Ravshanbek qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola qadimiy Mingtepa hamda Farg`ona vodiysi arxeologik qazishmalarining o`ziga xosliklarini ochib beradi. Bu ishda qadimiy Mingtepa shaxri xarobalari tahlil qilindi. Ushbu maqola kalit so`zlar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovani o`z ichiga oladi.*

Kalit so`zlar: *Mingtepa, Dovon davlati, Supa, Sanchqich, Sandal, Yuchen, Guyshen, Dao Chen, Mu-Su*

ОБ ИСТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ГОРОДА МИНГТЕПА АННОТАЦИЯ

В данной статье: *рассматриваются особенности археологических исследований в Ферганской долине и древнем городе Мингтепа. В статье анализируется разрушение древнего города Мингтепа. Данная квалификационная работа состоит из ключевых слов, списка литературы и приложения.*

Ключевые слова: *Мингтепа, Дован Стэйт, Супа, Санчкич, Санда, Ючен, Гушен, Дао Чен, Му-Су*

ABOUT THE HISTORY FERGANA VALLEY AND MINGTEPA CITY

Annotation: *This article deals with peculiarities of archeological exploration of Fergana Valley and ancient Mingtepa city. Destructions of the ancient Mingtepa city were analyzed in the paper. That qualification paper consists of key words, list of used literature and an appendix.*

Keywords: *Mingtepa, Dovon Country, Supa, Sanchqich, Sandal, Yuchen, Guyshen, Dao Chen, Mu-Su*

Mustaqillik yillari o`zbek davlatchiligi va uni tarixini o`rganish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Ko`plab qadimgi shaxarlarni paydo bo`lishi va rivojlanishi tahlil etilib, ulaarning yubiley sanalari keng nishonlandi. O`rta Osiyoda hususan, O`zbekistonda shaxarsozlik ma`daniyatini arxeologik jihatdan o`rganish va tahlil etish borasida katta ishlaar qilinsa-da, vodiydagi ayrim hali yaxshi o`rganilgan emas. Ana shunday qadimgi shaxarlardan biri Marxamat tumanidagi Mingtepa shaxaar xarobasidir. U 40 gektardan ko`proq maydonni egallaydi<sup>40</sup> va to`rt tomonidagi saqlangan mudofaa devorlarini hisobga olmaganda, ichki shaxar deyarli buzib yuborilgan va hozirgi kungacha ekin ekib kelinmoqda.

⁴⁰ Mingtepa ilmiy ommabop to`plam

Keng qamrovli ishlardan maqsad, Mingtepani Markaziy Osiyo shaxarsozlik tizimidagi o`rni va roli masalasini hal etish tahlil etishdan iborat. Buning uchun yodgorlikni bir necha nuqtalarida qazishma ishlari olib borilmoqda.

Mingtepa miloddan avvalgi IV-III asrlarda paydo bo`lgan vodiydagi eng yirik shaxaar xarobasidir. Ichki va tashqi shaxarlar maydoni qo`shib hisoblaganda 150-160 gektarni tashkil etgan⁴¹.

Shaxarni janubiy va g`arbiy darvozalari va ularga tutash ko`chalar aniqlangan.

Shaxar mudofaa tizimi va ulardagi minoralar qurilishi bosqichlar aniqlandi. Eng qadimgi devor minorasiz bo`lgani va u paxsadan tiklangani milodning birinchi asrida tashqi xavf kuchaygani bois, u ya`nada mustahkamlangan.

Shaxaar maxobati va tuzilishi uch qismdan iboratligi, yuksak rivojlangan hunarmandchlik mavjudligi aniqlandi. Ichki shaxar asosiy yashash joyi bo`lgan va miloddan avvalgi III-II asrlarda tashqi xavf paydo bo`lgan. Shuning uchun Mingtepa xayotining ikkinchi bosqichida kuzatuv minoralari bilan kuchaytirilgan. Minoralar asosiy devordan turtib chiqib turadi, mahobatli, kuchli va mustahkam qilib qurilgan. Minoralar to`g`ri to`rtburchak rejalari bo`lib, asosiy qadimgi paxsa devoriga tirkab qurilgan. G`arbiy devorning o`rta qismidan shaxaar darvozalarida taxminan birining o`rni topilgan. Darvoza ikki tomonidan minoralar bilan himoyalangan va mazkur me`morchilik yechimi Markaziy Osiyo yodgorliklariga va qolaversa, Xitoyning Loyan, Chanan (poytaxt shaxarlar) va boshqa shaxarlarga ham mosdir. Boshqa bir darvoza janubiy devorning sharqiy bo`lagida ham aniqlangan.

Mingtepa shaxar xarobasi katta shaxarlar Xitoychasiga Dao Chen tipiga kiradi. Manbalarda keltirilishicha, ikki qator mudofaa bor shaxarlar Dovon (Farg`ona) da anchagina edi.

O`zR FA Milliy arxeologiya markazi xodimlari Andijon viloyati Marxamat tumanidagi Mingtepa arxeologik yodgorligida arxeologik tadqiqot ishlarni olib bordilar.

Yodgorlik hozirgi Marhamat shahrining sharqiy chegarasiga tutashib ketgan. Mahalliy aholi tepaliklar ko`p bo`lgani uchun uni Mingtepa deb ataydi. Bu shahar xarobasi Farg`ona vodiysining antik davri yodgorliklari ichida eng yirigidir. Shahar uch qismdan iborat: ark, ichki va tashqi shahar. Ichki shahar maydoni 41 gektar, yodgorlik tashqi shahar bilan qo`shib hisoblaganda 270 gektardan ziyod.

Ma`lumki, Xitoy yilnomalari qadimgi Farg`ona podsholigi Davanda 70 dan ortiq katta va kichik shaharlar bo`lgan deb xabar beradilar. Manbalarda ulardan uchtasining nomlanishi aytib o`tiladi: Ershi, Yuchen va Guyshan. Mingtepa shahar xarobasini dastlab A.N. Bernshtam podsholik poytaxti Ershi bo`lishi kerak, deb fikr bildirgan. Xitoy manbasiga asosan, Ershi – Mingtepa birinchidan, vodiylar sharqiy tomonida joylashgan; ikkinchidan, Mingtepada xitoylar bostirib kirgan paytdagi (mil. avv. II asr) qalin madaniy qatlamlar va ular qamal qilgan devorga juda o`xshaydigan mudofaa inshootlari (ichki va tashqi devorlar)

⁴¹ Mingtepa kitobi

mavjud; uchinchidan, antik davrning Mingtepachalik ulug'vor va katta yodgorlik vodiya hozircha topilgani yo'q⁴².

Ushbu shahar qoldiqlari milloddan avvalgi V-IV va milodning IV asrlarda hukm surgan Dovon davlatining poytaxti bo'lgan Ershi shahrining xarobalaridir. Xitoy yozma manbalarida tilga olingan "Buyuk ipak yo'li"da joylashgan bu mahobatli shahar o'zining hunarmandchiligi, dexqonchiligi va "Samoviy tulporlari" bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng qadimiy tarixiy va madaniy mintaqalaridan biridir. Yozma manbalarda xususan antik davr mualliflarida Farg'ona vodiysi to'g'risida deyarli ma'lumotlar uchramaydi. Faqatgina ba'zi ma'lumotlar Xitoy yilnomalarida qayd etilib, ularda Farg'ona vodiysida 70 dan ortiq katta-kichik shaharlar mavjudligi aytilib Ershi, Yuchen. Guyshuan (Guyshan) shahri nomlari keltiriladi. Ershida yashovchilar haqida ularning savdo-sotiqda mahoratli ekanliklari aytilgan.

Markazi Ershida joylashgan Dovon qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan mamlakat sifatida ta'riflanadi. Ershi yaqinida katta uzumzorlar bo'lgan. Bu yerda o'nlab yillar davomida saqlanishi mumkin bo'lgan sharob tayyorlangan. Beda yetishtirilgan (xitoychada "mu-su" o'ti), asosan Xitoyga eksport qilingan.

Ammo qadimgi Dovonliklar uchun asosiy mag'rurlik faqat mahalliy elita tomonidan boshqariladigan mashhur Dovon koni - argamagi bo'lgan.

Mingtepa bizni fikrimizcha "katta shahar" (Xitoychada "dao chen") tipidagi shaharlar qatoriga kiradi. Xitoy manbalari xabaricha Davanda ikki qator himoyalangan shaharlar bo'lgan. Hozirda olib borilgan arxeologik natijalar Mingtepani ana shunday shaharlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi. Ta'kid joiki, birorta Xitoy manbasida boshqa birorta davlatni poytaxti degan termin uchramaydi. Xitoyliklar Ginshi termini bilan o'z davlatlari poytaxtlarinigina tushinganlar. Boshqa davlatlar poytaxtlarini du ya'ni rezidentsiya deb ataydilar.

Shahar rejasi samodan qaraganda parallelogramm ko'rinishga ega, kishini ikki qator mahobatli mudofaa inshootlari va ulardagi burjlar hayratga soladi. O'tgan asrning 50-yillarda olingan rejasida ark, ichki va tashqi shahar aniq ko'rinadi, keyincha ularni ko'plari buzib yuborilgan. Ichki shaharga kirish uch yoki to'rt tomondagi darvozalardan bo'lgan, asosiy darvoza esa g'arbiy mudofaa devorining o'rta, ya'ni 10-11 burjlar orasidagi qismida joylashgan.

Andijon viloyatida ochilgan Mingtepa arxeologik yodgorliklarini zamonaviy ilmiy asoslarda xaritalashtirish. Andijon viloyatining o'zida turizm uchun xizmat qila oladigan 170dan ortiq maskanlar mavjud. Ular sarasiga 100dan ziyoratgoh, 30dan oshiq shifobaxsh buloqlar, o'nlab tarixiy va zamonaviy maskanlar bor. Ular orasida Mingtepa arxeologik yodgorligi boy tarixga egadir. Mingtepa madaniyatining mustaqil madaniyat sifatida o'ziga hoslik jihatlarini rivojlanish bosqichlari va xronologiyasini aholi xo'jalik yumushlari ma'naviy kechinmalarini aniqlashtirish, ikulturagenez masalalarini aniqlanadi. O'zbekiston hududida

⁴² www.wikistipendiya.uz

joylashgan qadimgi Farg`ona vodiysi urbanizatsiya jarayonlari davrida jamoalar moddiy madaniyati tizimida tutgan o`rnini ilmiy asoslaydi⁴³.

Qazishmalarda moddiy ma`daniyat namunalari ko`plab topiladi (kulolchilik, temirchilik, tosh taroshlik, to`qimachilik namunalari). Mingtepadan topib o`rganilgan ashyoviy topilmalar asosan ziroatchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelgan qabilalarga tegishli bo`lgan. Demak Mingtepa shahar xarobasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari Qadimgi Farg`onanaing Davon davlatidagi shaharsozlik ma`daniyatini gullab yashnaganidan darak beradi. Ikkinchi qurilish davrida (miloddan avvalgi II-I-asrlar) qadimgi devorni ya`nada mustahkamlash uchun qo`shimcha devor va to`g`ri to`rtburchakli kuzatuv minoralari bunyod etiladi.

1952-yildagi ma`lumotga asosan g`arbiy va sharqiy devorda 20 tadan, janubda 6 ta, shimolda 12 ta kuzatuv minoralari, (burjlari) saqlanib bizgacha yetib kelgan. 2011-yili samodan olingan sur`atlar tahlil etilganda Mingtepa ichki shaxrini rejasiga to`g`ri to`rtburchakli emas, balki parallelogramma ko`rinishidagi ekanligi ayon bo`ldi. Bu narsa Mingtepa rejasiga emas, balki uni o`rganish bilan bog`liq muammolarga ham o`zgartishi kiritishi shubhasiz. Chunki u ko`plab belgilariga ko`ra ilk temir davrining eng yirik yodgorligi Eylaton qadimgi shaxri rejasiga bilan o`xshashlik tomonlari ko`zga tashlanadi. Bu narsa Mingtepani davriy jihatdan bir oz qadimgi davrga qadimiylashishi mumkinligi uchun yangi dalil bo`ladi. Chunki har 2 shaxar bir davrda bunyod etilgan bo`lishi mumkin. 2015-2016-yillari ikkinchi tashqi devor o`rami to`rt tomondan 500 gektar maydon Xitoy maxsus asbobi Tan chan (Sanchqich) yordamida o`rganib chiqildi. Natijada Mingtepa tashqi mudofaa devorlari qoldiqlari qayd etildi. Ko`hna shaharning ikkinchi tashqi mudofaa devori himoyalangan hududni 300 gektardan ziyod ekanligini aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abdullaev B.M. Qadimiy Farg`ona davlatchiligiga doir ayrim fikrlar
2. Mingtepa ilmiy ommabop to`plami.
3. Mingtepa kitobi
4. www.wikistipendiya.uz

⁴³ Abdullaev B.M Qadimiy Farg`ona Davlatchiligiga oid ayrim fikrlar